



«TASDIQLAYMAN»  
Toshkent shahar statistika  
boshqarmasi boshlig‘i  
*L. Mirsoatov*  
“30” iyun 2025-yil

**Toshkent shahar statistika boshqarmasida  
korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida  
bo‘lib o‘tgan yig‘ilish**

**BAYONI № 6**

2025- yil 30-iyun

Toshkent sh.

**Yig‘ilish raisi:**

L. Mirsoatov – boshqarma boshlig‘i.

**Qatnashganlar:**

A. Azimov – Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari

X. Narziyev- Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari v.b.

Boshqarma tarmoq bo‘limlari va tuman statistika  
bo‘limlari xodimlari

**KUN TARTIBI:**

**1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-fevraldagи PQ-75-son  
“O‘zbekiston respublikasi milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish  
chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori to‘g‘risida;**

*(L. Mirsoatov, A. Azimov, X. Narziyev, A. Mamatov, Mirsoatov)*

Yig‘ilishda Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig‘i L.Mirsoatov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-fevraldagи PQ-75-son “O‘zbekiston respublikasi milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazmun-mohiyatini boshqarma tarmoq bo‘limlari va tuman statistika bo‘limlari xodimlariga qisqacha tushunchalar berib o‘tdi.

Yig‘ilishda so‘zga chiqgan L.Mirsoatovning ta’kidlashicha: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-fevraldagи PQ-75-son “O‘zbekiston respublikasi milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini samarali tashkil etish, ushbu qarorda belgilangan bandlar ijrosining mazmun-mohiyatini yuzasidan boshqarma va tuman statistika xodimlariga ta’kidlab o‘tildi.

Statistik kuzatuvlarni o‘tkazish va ko‘rsatkichlarni shakllantirish uslubiyotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, sohada islohotlarni jadallashtirish hamda

xalqaro tashkilotlar ishtirokida kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida Milliy statistika qo‘mitasi tuzilmasida “Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish” ofisi (keyingi o‘rinlarda — Transformatsiya ofisi) tashkil etilsin.

Transformatsiya ofisi quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda yangi mexanizmlarni joriy qilishga mas’ul etib belgilansin:

(a) ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun zarur bo‘lgan statistik ma’lumotlarni, shu jumladan, aholi daromadlari va ularning manbalarini baholash uslubiyotini takomillashtirish;

(b) mikro darajada kuzatuvlarni amalga oshirish va statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish uslubiyotini ishlab chiqish;

(v) Milliy statistika qo‘mitasi bilan rasmiy statistikani tayyorlovchi boshqa davlat organlari o‘rtasida samarali hamkorlik va uslubiy muvofiqlashtirishni yo‘lga qo‘yish;

(g) statistika ma’lumotlaridan foydalanuvchilar bilan samarali qayta aloqani (mijozga yo‘naltirilganlikni) joriy etish;

(d) xalqaro tashkilotlar ishtirokida statistika organlari xodimlarining salohiyatini oshirish ishlarini tashkil etish;

(e) sohada faoliyat yuritayotgan ilmiy muassasalar, tadqiqotchilar hamda nufuzli xalqaro konsalting tashkilotlari bilan statistika ishlarini tashkil etish va yuritish bo‘yicha samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

(j) statistika sohasini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish.

Shuningdek, Milliy statistika qo‘mitasi tizimining Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan jami tuzilmalari boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 1 392 ta, shu jumladan, Milliy statistika qo‘mitasi raisi o‘rnbosarlari soni 3 ta etib belgilansin. Bunda:

(a) Milliy statistika qo‘mitasining markaziy apparati hamda hududiy bo‘limalarining Davlat budgetidan moliyalashtiriladigan jami 470 ta, shundan 330 ta boshqaruv xodimlari, 140 ta ishlab chiqarish xodimlari shtat birliklari maqbullashtirilayotganligi inobatga olinsin;

(b) maqbullashtirilayotgan shtat birliklari hisobidan bo‘shaydigan mablag‘lar Milliy statistika qo‘mitasi tizimidagi xodimlarning asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) natijadorligidan kelib chiqib, ularni rag‘batlantirishga yo‘naltirilsin hamda keyingi yildan boshlab rag‘batlantirish uchun ajratiladigan mablag‘lar Milliy statistika qo‘mitasi xarajatlarida alohida satrda aks ettirilishi ta’kidlandi.

Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo‘limlari rahbarlari, xodimlari qonun hujjalariiga rioya etishi, o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg‘arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbazarlikni sodir etishdan yoki bunday

huquq o'zuarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shartligi yuzasidan ogohlantirildi.

Shuningdek, 2025-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejası ijrosini ta'minlash yuzasidan boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari majburiyatları to'g'risida bat afsil ma'lumotlar berildi. Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish yuzasidan boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlariga tegishli topshiriqlar berilganligi qayd etildi.

Shu bilan birga, boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilishlari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Kun tartibidagi masalalar va ular to'g'risidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish

#### **Q A R O R Q I L A D I:**

1. Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i L.Mirsoatov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-fevraldaggi PQ-75-son "O'zbekiston respublikasi milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari boshliqlariga:

Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i L.Mirsoatov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-fevraldaggi PQ-75-son "O'zbekiston respublikasi milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so'zsiz bajarilishi ta'minlansin hamda amalga oshirilgan ishlар bo'yicha ma'lumotlar rahbariyatga kiritilsin.

**Yig'ilish kotibi**

**A. Mamatov**